

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2025-yil 7-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-mart
"Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida"
PQ-102-son qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi
255-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2025 yil 4-5 oktyabr kunlari
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti negizida bo'lib o'tgan
"Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjuman
HISOBOTI

1. **Anjuman mavzusi:** Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon.
2. **Anjuman maqomi:** Respublika miqyosida.
3. **Ilmiy va ilmiy-texnika anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zR Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar:** O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 7-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-mart "Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida" PQ-102-son qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 255-son buyrug'i asos bo'ladi.
4. **Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:** Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:
 - IX–X asrda ilmiy-ma'naviy muhit va Imom Moturidiyning talimoti.
 - Moturidiylik ta'limotining tarixiy ildizlari va Markaziy Osiyodagi rivojlanish bosqichlari.
 - Imom Moturidiyning kalom ilmidagi o'rni va ilmiy merosining o'rganilishi.
 - Moturidiylik merosining XX–XXI asrlardagi talqini, ilmiy merosining qayta tiklanishi va jadidchilik harakati: tarixiy tajriba va zamonaviy saboqlar.
 - Moturidiylik maktabining xalq ongida saqlanishi va uning og'zaki ijod, marosimlar hamda madaniy xotiradagi ifodasi.
 - Moturidiylik va globallashuv sharoitida diniy-ma'naviy tahdidlar: radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitet.

Maqsadi: O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda buyuk alloma va mutakallim Imom Abu Mansur al-Moturidiyning boy va serqirra ilmiy-ma'naviy merosini tarixiy-nazariy yondashuv asosida chuqur o'rganishdan iborat. Jumladan, IX–X asrlardagi Movarounnahr intellektual muhitida shakllangan Moturidiylik maktabining genezisi, uning asosiy g'oyalari – aql va naql o'rtasidagi muvozanat, e'tiqodda mo'tadillik, ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va inson qadr-qimmatiga asoslangan tafakkur tizimi tarixiy taraqqiyot kontekstida tahlil etiladi. Anjuman doirasida Moturidiylik ta'limotining Markaziy Osiyodagi tarixiy-madaniy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri, uning islomiy kalom ilmidagi o'rni, ilmiy maktab sifatidagi shakllanish bosqichlari, shuningdek, bu merosning turli tarixiy davrlardagi talqiniga ham e'tibor qaratiladi.

Vazifalari: Bugungi zamonaviy dunyoda diniy-ma'rifiy sohadagi murakkab jarayonlar va globallashuv bilan bog'liq ideologik tahdidlar sharoitida Moturidiylik

maktabining murosa va aqlga tayanadigan, fikriy mas'uliyatni ustuvor qo'yadigan yondashuvi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ushbu anjuman nafaqat Moturidiy ta'limotining tarixiy ildizlarini yoritishga, balki uni zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy hayotga uyg'unlashtirish, ilmiy jamoatchilik e'tiboriga taqdim etish va akademik muhokama maydonini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Imom Abu Mansur al-Moturidiy va u abadiy qo'nim topgan Chokardiza qabristoniga dafn etilgan buyuk allomalarning xotiralari, ilmiy me'rosi haqida bugungi kungacha olib borilgan tadqiqot natijalarini jamoatchilikka etkazishdan iborat.

5. Muhokama qilinadigan muammolar.

Imom Moturidiyning kalom ilmidagi o'rni va ilmiy merosining o'rganilishi. Moturidiylik merosining XX–XXI asrlardagi talqini, ilmiy merosining qayta tiklanish borasida allomaning dafn etilgan Chokardiza qabristoni haqidagi ma'lumotlar berildi hamda mazkur qabristonda doimiy qo'nim topgan buyuk allomalar, imomlar, avliyo va ulomlar jumladan, fiqih ilmining buyuk nomoyondasi Imom Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Najmiddin Nasafiy, Imom Abu Lays Samarqandiy kabi buyuk allomalarning ilmiy merosini o'rganish borasidagi so'ngi tadqiqot ishlari muhokama qilindi.

6. O'tkaziladigan anjumanning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi: anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik. Anjumanda O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqand arxeologiya instituti, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, oliy ta'lim muassasalari olimlari, tadqiqotchilar, shuningdek, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy-tadqiqot fondi mutasaddilari ishtirok etmoqda. Anjumanda Imom Moturidiyning ilmiy merosi bilan bog'liq bo'lgan so'nggi tadqiqot natijalari e'lon qilindi. Ushbu anjumaning maqsadi Moturidiyning ilmiy va ma'naviy merosini chuqur o'rganish hamda keng targ'ib qilishdir. Shu doirada Respublika oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarining yosh tadqiqotchilari, magistr va talabalari ishtirokida "Maqolalar tanlovi" o'tkazildi. G'oliblarga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus sovg'alari topshirildi. Tanlovda O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi Po'latova Dildora Aziz qizi 1-o'rinni egalladi, 2-o'rinni SamDU talabasi Mushtariybegim Ismoilova qo'lga kiritdi. Anjumanning birinchi kunida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori, tarix fanlari doktori, professor Shovosil Ziyodov, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy-tadqiqot fondi rahbari Komilxon Kattoev, Samarqand arxeologiya instituti direktori Mo'minxon Saidov, Ege Universiteti Turk dunyosi tadqiqotlari instituti o'qituvchisi Nadim Masit, SamDU professori, tarix fanlari doktori Shokir

G'afforov, O'zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi tadqiqotchisi Muxlisa Mirzayeva kabi olim va tadqiqotchilarning ilmiy asoslangan ma'ruzalari Moturidiy falsafasi va fikrini anglashda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Anjumanning 5-oktabr kungi yig'ilishi Imom Moturidiy maqbarasi va Chokardiza qabristoni majmuasida davom etdi. Unda Imom Moturidiyning ilmiy merosi, ustozlari va u boshlab bergan tariqat ilmining davomchilari haqida qiziqarli ilmiy munozara bo'ldi. Munozarada Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti jamoasi, Samarqand arxeologiya instituti, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot fondi va Imom Moturidiy xalqaro markazi ma'muriyati hamda mutaxassisleri ishtirok etib, so'nggi tadqiqot natijalari yuzasidan fikr almashdilar.

Ilmiy-amaliy anjuman yakunida xulosalar bildirilib, kelgusi tadqiqotlar yo'nalishlariga oid takliflar ilgari surildi.

8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi: Anjumanda tarix, arxeologiya, islomshunoslik, sharqshunoslik, pedagogika fan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbiiq etilayotgan ishlanmalari, ilg'or innovatsion g'oyalarini o'zida ifoda etgan ma'ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 63 ta, jumladan Turkiyadan 1 ta). Mazkur anjumanga Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti jamoasi, Samarqand arxeologiya instituti, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot fondi va Imom Moturidiy xalqaro markazi vakillari o'z ma'ruzalari bilan asosiy plenar majlisida va 5-oktyabr kuni Imom Moturidiy majmuasida amaliy mashg'ulotda ishtirok etdi. Shuningdek, Samarqand pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika instituti, Andijon davlat chet tillari instituti, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis institute va Zarmed universitetidan olimlar, tadqiqotchilar, magistrlar hamda talabalar o'z ma'ruzalari bilan shubalar yig'ilishlarida ishtirok etishdi.

10. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Konfrensiyada Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand arxeologiya instituti, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot fondi, Imom Moturidiy xalqaro markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqand pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika instituti, Andijon davlat chet tillari instituti, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Denov tadbirkorlik va pedagogika institute, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Samarqand iqtisodiyot va servis institute, ZARMED universiteti va boshqa oliy o'quv yurtlari hamda tegishli tashkilotlardan sohada faoliyat

yuritayotgan mutaxassislar, iqtidorli talabalar, magistrantlar, ilmiy-tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilarishtirok etishdi.

Konfrensiyaning ikkinchi qismi 5-oktyabr kuni Imom Moturudiy majmuasida davom etdi.

Konfrensiyaning 5-oktyabr kungi yig'ilishi Imom Moturudiy maqbarasi va Chokardiza qabristoni majmuasida davom etdi. Unda Imom Moturudiyning ilmiy merosi, ustozlari va u boshlab bergan tariqat ilmining davomchilari haqida qiziqarli ilmiy munozara bo'ldi. Munozarada Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetidan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **H.Xushvaqto**v, Samarqand arxeologiya instituti direktori **M.Sayidov**, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi **M.Amonov**, Mahdumi A'zam Dahbediy ilmiy tadqiqot fondi rahbari **K.Kottaev** va Imom Moturudiy xalqaro markazi direktori o'rinbosari **Sh.Islomov** hamda mutaxassisleri ishtirok etib, so'nggi tadqiqot natijalari yuzasidan fikr almashdilar

Konfrensiyaning so'ngida soha vakillari tomonidan Imom Moturudiy ilmiy merosini yanada o'rganish, Chokardiza qabristoniga dafn etilgan buyuk allomalar Imom Moturudiy, Imom Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Najmiddin Nasafiy, Imom Abu Lays Samarqandiy kabi buyuk allomalarning ilmiy merosini chuquriroq o'rganishga doir bir qancha takliflar ilgari surildi: 1. Samarqand davlat universiteti "Samarqand tamadduni tarixi" kafedrasida **arab, fors va eski o'zbek yozuviga asoslangan til kurslarini** tashkil etish. 2. Arxeologik tadqiqodlarda **geodeziya sahasini rivojlantirish**, 3. Boshqa tadqiqod muassalarini ham tadqiqotlarga jalb etishga kelishildi.

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor**



H.Xushvaqtov

“Moturidiylik ta’limoti va hozirgi zamon”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumandan fotolavhalar



Samarqand davlat universiteti prorektori **S. Abbasov**



Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori **Shovosil Ziyodov**



